

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI AHOLISINING HUDUDIIY JOYLASHUVI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Nurboboyeva Charos Azamatjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Anotatsiya. Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasi aholisining hududiy joylashuvi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Aholining mintaqalar bo'yicha notekis taqsimlanishi, tarixiy migratsion jarayonlar, urbanizatsiya sur'atlari hamda yirik shahar aglomeratsiyalarining rivojlanish xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda aholi zichligining hududlar kesimidagi farqlari, mehnat resurslari tarkibi, shahar va qishloq aholisining nisbati, infratuzilmaning demografik jarayonlarga ta'siri kabi parametrlar statistik ma'lumotlar va geografik tahlil usullari asosida o'rganilgan. Shuningdek, demografik siyosat, ichki migratsiya oqimlari, yangi iqtisodiy zonalar va urbanistik rivojlanish loyihalarining aholi joylashuviga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning hududiy rivojlanish strategiyasini optimallashtirishda, aholi punktlarini rejalashtirishda va mintaqaviy demografik jarayonlarni boshqarishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: O'zbekiston aholisi, hududiy joylashuv, aholi zichligi, urbanizatsiya, migratsiya, demografik jarayonlar, shahar aglomeratsiyasi, mehnat resurslari, mintaqaviy rivojlanish, geografik omillar.

РАЗМЕЩЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Султанов Шухрат Адхамович

доцент Шахрисабзского государственного педагогического института

Узбекистан, город Шахрисабз

Нурбобоева Чарос Азаматжон кизи

*магистрант Шахрисабзского государственного педагогического
института*

Узбекистан, город Шахрисабз

Аннотация. В данном научном исследовании проведён системный анализ территориального размещения населения Республики Узбекистан и природно-географических, экономических, демографических и социальных факторов, влияющих на его формирование. Научно обосновано раскрываются неравномерность распределения населения по регионам,

исторические миграционные процессы, темпы урбанизации и особенности развития крупных городских агломераций. Изучены различия плотности населения по территориям, структура трудовых ресурсов, соотношение городского и сельского населения, а также влияние инфраструктуры на демографические процессы на основе статистических данных и географических методов анализа. Кроме того, дана оценка влиянию демографической политики, внутренних миграционных потоков, новых экономических зон и урбанистических проектов на размещение населения. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для оптимизации стратегии территориального развития Узбекистана, планирования населённых пунктов и управления региональными демографическими процессами.

Ключевые слова: население Узбекистана, территориальное размещение, плотность населения, урбанизация, миграция, демографические процессы, городская агломерация, трудовые ресурсы, региональное развитие, географические факторы.

SPATIAL DISTRIBUTION OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sultanov Shukhrat Adkhamovich

*Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shakhrisabz city*

Nurboboyeva Charos Azamatjon qizi

*Master's student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shakhrisabz city*

Abstract. *This scientific study provides a systematic analysis of the spatial distribution of the population of the Republic of Uzbekistan and the natural-geographical, economic, demographic, and social factors influencing its formation. The research scientifically addresses the uneven distribution of the population across regions, historical migration processes, urbanization dynamics, and the development characteristics of major urban agglomerations. Differences in population density across territories, the structure of labor resources, the ratio of urban to rural population, and the impact of infrastructure on demographic processes are examined using statistical data and geographical methods of analysis. Additionally, the study evaluates the influence of demographic policy, internal migration flows, newly established economic zones, and urban development projects on population distribution. The findings hold scientific and practical significance for optimizing Uzbekistan's territorial development strategy, planning settlements, and managing regional demographic processes.*

Keywords: *population of Uzbekistan, spatial distribution, population density, urbanization, migration, demographic processes, urban agglomeration, labor resources, regional development, geographical factors.*

Kirish. Aholining hududiy joylashuvi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Aholi soni, zichligi, joylashuv shakllari va migratsiya jarayonlari hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi hamda tabiiy-geografik sharoiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois aholining hududiy taqsimlanishini ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy geografiya, demografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi tabiiy-geografik jihatdan rang-barang bo‘lib, tog‘li, adirlik va tekislik mintaqalarining mavjudligi aholining notekis joylashuviga sabab bo‘ladi. Aholi asosan sug‘orma dehqonchilik rivojlangan vohalar, yirik sanoat markazlari va transport-kommunikatsiya tugunlarida zich to‘plangan. Aksincha, cho‘l va baland tog‘li hududlarda aholi siyrak joylashgan. Bu jarayonlarga tabiiy sharoit bilan bir qatorda tarixiy taraqqiyot, urbanizatsiya darajasi, mehnat resurslarining harakati va iqtisodiy islohotlar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda aholi zichligi bo‘yicha katta farqlar mavjud. Bu farqlar tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va migratsion omillar bilan izohlanadi. Umumiy mamlakat bo‘yicha aholi zichligi 2010-yilda 62,4 kishi/km² bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 83,6 kishi/km² ga yetgan.

Bu jarayon aholining tabiiy o‘sishi, shaharlar va infratuzilmalar rivoji, shuningdek, ichki migratsiya oqibatida yuzaga kelmoqda. Viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, aholining joylashuvi juda notekis bo‘lib, ayrim hududlarda zichlik nihoyatda yuqori, boshqalarida esa ancha past darajada saqlanib qolmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududlari bo'yicha aholi zichligi
(2010-2025-yillar, kishi)**

T/r	Hududlar	2010	2015	2020	2025
1	O'zbekiston Respublikasi	62,4	69,1	75,5	83,6
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,8	10,6	11,4	12,1
3	Navoiy viloyati	7,7	8,1	9,0	9,9
4	Buxoro viloyati	40	43,8	47,1	50,1
5	Qashqadaryo viloyati	91,5	103,4	114,7	127,2
6	Surxondaryo viloyati	102,2	116,2	129,5	145,1
7	Samarqand viloyati	186	209,2	230,8	255,8
8	Jizzax viloyati	52,7	59,0	65,2	72,5
9	Sirdaryo viloyati	166,9	181,6	197,7	217,5
10	Toshkent viloyati	169,1	180,3	192,3	203,2
11	Namangan viloyati	303,6	319,8	325,3	330,5
12	Andijon viloyati	592,8	664,5	727,4	804,8
13	Xorazm viloyati	258,1	264,6	269,3	273,4
14	Farg'ona viloyati	452,1	506,6	551,7	609,5
15	Toshkent shahri	6750,2	6959,1	6997,8	4794

Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Eng yuqori aholi zichligi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda: 2010-yilda 6750,2 kishi/km² bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 4794 kishi/km² ga yetgan. Bu farq boshqa barcha viloyatlar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada yuqori bo'lib, poytaxtga ichki migratsiya oqimining kuchliligi, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarning markazlashganligi, ish o'rinlarining ko'pligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda Toshkent shahri O'zbekistonda eng zich yashaladigan hudud sifatida ajralib turadi. Undan keyingi o'rinlarda Andijon (2025-yilda 804,8

kishi/km²), Farg‘ona (609,5 kishi/km²) va Namangan (330,5 kishi/km²) viloyatlari turadi. Bu viloyatlar Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, aholisi ko‘p va yer maydoni nisbatan kichik. Aynan shu omillar bu yerda aholi zichligining yuqoriligi bilan izohlanadi. Farg‘ona vodiysi — respublikaning eng ko‘p aholiga ega va sanoatlashgan hududi hisoblanadi.

Sirdaryo (217,5 kishi/km²), Toshkent viloyati (203,2 kishi/km²) va Samarqand (255,8 kishi/km²) viloyatlari” ham aholisi zich joylashgan hududlar sirasiga kiradi. Bu hududlar respublika markaziy qismida joylashgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqori. Samarqand — tarixiy va madaniy markaz, bu yerda turizm, savdo, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlar yaxshi rivojlangan. Xorazm (273,4 kishi/km²) va Qashqadaryo (127,2 kishi/km²) viloyatlarida ham aholi zichligi nisbatan yuqori darajada. Xususan, Xorazmda suv resurslariga yaqinlik va yirik aholi punktlarining mavjudligi, Qashqadaryoda esa sanoat (ayniqsa, neft-gaz sektori) rivojlanishi ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zgarishlar dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, barcha viloyatlarda 2010-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda aholi zichligining oshganini ko‘rish mumkin. Bu holat tabiiy o‘sish, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi, shaharsozlik siyosatining faol yuritilishi bilan bevosita bog‘liq. Nisbatan kam zichlikka ega hududlar jumlasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi (12,1 kishi/km²), Navoiy (9,9 kishi/km²) va Buxoro (50,1 kishi/km²) viloyatlari kiradi. Bu hududlarda aholining nisbatan siyrak joylashganligi yer maydonining katta bo‘lishi, cho‘l va yarim cho‘l zonalarining mavjudligi, iqlim sharoitlarining murakkabligi, iqtisodiy faoliyat turlarining cheklanganligi bilan bog‘liq. Xususan, Navoiy va Qoraqalpog‘iston Respublikasi cho‘l zonalarida joylashgan bo‘lib, aholining asosiy qismi ayrim sanoat markazlarida yoki daryo bo‘ylarida to‘plangan.

Shuningdek, Surxondaryo (145,1 kishi/km²) va Jizzax (72,5 kishi/km²) viloyatlarida ham o‘rtacha darajadagi zichlik kuzatiladi. Surxondaryo viloyatining janubiy geografik joylashuvi va chegara hududi bo‘lishi bu yerdagi iqtisodiy va demografik rivojlanishga o‘ziga xos’ona vodiysi hududlari aholisi zich joylashgan eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, cho‘l hududlarida joylashgan viloyatlarda

bu ko'rsatkichlar ancha past. Ushbu tendensiyalar urbanizatsiya darajasining oshishi, infratuzilma rivoji va hududiy siyosatga muvofiq kelajakda ham davom etishi mumkin. Shu bois, har bir hudud uchun ijtimoiy xizmatlar, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va uy-joy qurilishi kabi sohalarda rejalarni aholi zichligidan kelib chiqib ishlab chiqish zarur.

Xulosa. 2010–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida aholi sonining barqaror o'sishi kuzatilib, bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda aholining mutlaq soni qariyb 9,5 million kishiga ortib, 37,5 millionga yetdi va 34 foizlik o'sish qayd etildi. Demografik o'sishning asosiy omillari yuqori tug'ilish darajasi, tabiiy o'sishning ijobiy saldosini, ichki migratsiya va yosh tarkibidagi demografik qulayliklar bilan bog'liq bo'ldi. Biroq bu jarayon bir vaqtning o'zida infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik tizimlariga qo'shimcha bosimni kuchaytirib, davlatning strategik rejalashtirish faoliyatida demografik omillarning o'rnini oshirdi.

Shu bilan birga, hududlar bo'yicha demografik tafovutlar, urbanizatsiyaning jadallashuvi, tug'ilish ko'rsatkichlarining sekin pasayishi va aholi tarkibining qariyb borayotgani demografik siyosatni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Aholining sifat jihatidan rivojlanishini ta'minlash – ya'ni sog'lom, malakali va mehnatga layoqatli inson resurslarini shakllantirish, resurslar taqsimotini hududlar bo'yicha muvozanatlash va urban infratuzilmani samarali rivojlantirish – mamlakatning barqaror taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O'zbekistonda demografik siyosatni faqat tug'ilishni rag'batlantirish bilan cheklab qolmay, balki aholining hayot sifati va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi asosida yuritish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Файзуллаев М.А., Муродова Д.С. Аҳоли ўсиш динамикасини ўрганишнинг илмий-услубий асослари // Электронное научно-практическое

периодическое издание. Экономика и социум № 5(108), 2023. – С. 1162-1174 (11.00.00; Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари, №11)

2. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Toshkent. “Innovatsiya-ziyo” 2020.

3. Назаров М.И., Тожиева З.Н. Ижтимоий география. Ўқув қўлланма.Т., “Университет”, 2003

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari;

5. Муродова Д.С.Экономико-географическое особенности населения Кашкадарьинской области // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. № 2 (81), 2021. – С. 55-58 (11.00.00; Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари, №11)

6. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.Volume 12, India, 2022. – P. 29-34. ISSN: 2249-7137 (Йирик нашриётлар ва маълумотлар базаси, Scientific Journal Impact Factor №23) SJIF=8.252

7. Murodova D.S. Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 32-35. ISSN 2795-7659 (Йирик нашриётлар ва маълумотлар базаси, Directory of Open Access Journal №25) Journal Impact Factor: 8.015

8. Murodova D. Qashqadaryo viloyati shahar manzilgohlari shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi geografik omillar // O‘zMU xabarlar. Ilmiy maqolalar to‘plami. №3/1/1. Toshkent, 2023. – B.300-303 (11.00.00; Milliy nashrlar)

9. Murodova D.S. Aholi migratsiya harakatining hududiy jihatlari // O‘zbekiston zamini. Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. ISSN 2181-9955. №2 – Toshkent, 2023. – B.168-172 (11.00.00: Milliy nashrlar)

10. Murodova D. Economic-geographical characteristics of the rural population of Kashkadarya region // Электронное научно-практическое

периодическое издание. Экономика и социум № 2(117), 2024. – С. 460-467
(11.00.00; Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари, №11).